



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

336-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha talablarni kuchaytirish to‘g‘risida” 2024-yil 28-iyundagi 360-son qarori ijrosi haqida”gi 306-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini kuchaytirish, shuningdek, ommaviy tadbir tashkilotchilari va tadbir o‘tkazish obyekti ma‘muriyatining mas‘uliyatini oshirish, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi 306-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi 306-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son qarori bilan:

Ommaviy tadbirlarga fuqarolarni reklama, aksiya va boshqa maqsadlarda oziq-ovqat, buyumlar hamda boshqa mahsulotlar va tovar-moddiy boyliklarni bepul tarqatish yoki haddan tashqari arzonlashtirilgan narxda sotish orqali jalb qilish taqiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga ommaviy tadbirlarga fuqarolarni reklama, aksiya va boshqa maqsadlarda oziq-ovqat, buyumlar hamda boshqa mahsulotlar va tovar-moddiy boyliklarni bepul tarqatish yoki arzonlashtirilgan narxda sotish orqali jalb qilish taqiqlanishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tuman bo‘limi (B.Abdullayev) va Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov) tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son qarori bilan belgilanayotgan talabga ommaviy tadbir tashkilotchilari va ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti ma‘muriyati tomonidan so‘zsiz rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirsin;

ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari buzilishiga yo‘l qo‘ygan ommaviy tadbir tashkilotchilari va ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti ma‘muriyati O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishini ta‘minlasin;

ushbu qaror bilan joriy etilayotgan talabning maqsadi, mazmun-mohiyati va ahamiyati aholi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tushuntirilishini tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tuman bo‘limi boshlig‘I B.Abdullayev va Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i D.Karimov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**N.Xudoyberdiyev**